

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI BILAN HAMKORLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nematov Og'abek Haydar Axmat o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,*

*317 guruh kursanti.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada soliq tizimi bilan boliq huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashishda IIOlari profilaktika inspektorlari va soliq tizimi xodimlarining hamkorlikdagi faoliyati va uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyalari haqida ilmiy-amaliy tahlil asosidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq sohasidagi xuquqbuzarliklar, savdo qoidalari, musodara qilish, haqqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, soliq xizmati, jazo tizimi, huquqbuzarlik, qonunchilik normasi.

Bugungi kunda ma'muriy hududlardagi kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash borasida profilaktika inspektorining faoliyati muhim ahamiyat kasb etuvchi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi asosiy sub'ektlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, profilaktika inspektorining davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorligi bevosita soliq sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda bu borada fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Profilaktika inspektorining davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorligining maqsadi – bu, huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilikni jalb etish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarning oldini olish, bu borada ularni aniqlash va ularga barham berish, ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, fuqarolarda qonunga itoatkorlik va huquqbuzarlik sodir etishdan tiyilishga oid xulq-atvorini shakllantirish hamda huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi hissini uyg'otishdan iboratdir. Soliq sohasiga oid huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish soliqlarga oid huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika inspektori hamda davlat soliq xizmati organlari bilan hamkorlikda soliq sohasiga oid qoidabuzarlik holatlari aniqlanganda sodiq kodeksi talablari doirasida tegishli choralar ko'riladi. Soliqlarga oid huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqish hamda yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralari qo'llash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan moliyaviy jazo choralari sud tartibida qo'llaniladi.

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish turli darajalarda va bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi. Bu borada asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish; soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish; soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish; soliqqa tortiladigan ob'ektlar va sub'ektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash; soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Tadbirkorlik sub'ektlari - belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari bo'lishi mumkin emasligi qonunda belgilangan. Tadbirkorlik sub'ektlari davlat organlari tizimidagi soliq xizmati xodimlari bilan yuzaga keladigan soliq huquqiy munosabatlarda hamda soliq masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonida murojaat ko'rib chiqilishini asossiz rad etish, murojaatni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, murojaatni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha, tadbirkorlik sub'ektlarning iqtisodiy va boshqa manfaatlariga zarar yetkazilishiga sabab bo'luvchi noto'g'ri ma'lumotlarni berish, murojaatni ko'rib chiqish uchun haq talab qilish, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilish yoxud tadbirkorlik sub'ekti va uning tijorat siri bilan bog'liq faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor etish kabi g'ayriqonuniy harakatlar yoki harakatsizliklarga yo'l qo'yish qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh, qilish hamda modernizatsiyalash, moliyaviy javobgarlik tizimini yanada erkinlashtirish, nazorat organlarining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslikni talab etmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yanada rivojlanishini rag'batlantirishni kuchaytirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirish, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandligini ta'minlash, shuningdek xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish uchun qo'shimcha ravishda qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy asoslar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi kelgusida soliq hisobotlarini to'liq avtomatlashtirishga va inson omilini butunlay cheklashga qaratilgan loyihalarni amalga oshiryapmiz.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining quyidagi raqamlarini keltiramiz. Keyingi yildan boshlab soliq hisobotlarining qariyb 90 foizi soliq organlarida mavjud ma'lumotlar asosida avtomatik ravishda to'ldiriladi. Hozir bu raqam 50 foizni tashkil etyapti. Bu esa hisobchilar uchun o'ta muhim bo'lgan vaqtdan yutish va daromadlarni oshirish, ularning to'g'ri hamda aniq hisobini yuritish imkonini yanada oshiradi.

Xususan, soliq organlariga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslar hisobini yuritish, tahlil qilish, harakatini masofadan hisobga olish, har bir ombor kesimida kirim-chiqim qilingan yoki qoldiq tovarlar ro'yxatini shakllantirish imkonini beruvchi "E-aktiv" avtomatlashgan axborot tizimi yaratildi. Bundan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslar ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish uchun ko'chmas mulk ijara shartnomalarini masofadan turib davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish - "E-ijara" elektron xizmati yaratilib, "ijara.soliq.uz" internet manzilida test rejimida joylashtirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazayotgan davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlarining g'ayriqonuniy qarorlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas (noqonuniy) deb e'tirof etish to'g'risida, shuningdek joylardagi davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlar huquqlarini cheklovchi qarorlar qabul qilgan mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish to'g'risida sudlarga da'vo arizalari kiritilishini ta'minlash lozimligi belgilangan. Mazkur qarorning qabul qilinishi jamiyatimizda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular faoliyatiga davlat organlari, ularning mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy aralashuvini cheklash hamda qonuniy manfaatlariga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni o'z vaqtida to'la undirishini ta'minlashga doir masalalarini huquqiy kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 38-moddasiga asoslanadigan bo'lsak, soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi, ya'ni davlat va mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari jamg'armalarga qonun hujjatlari bilan belgilangan to'lovlarni o'tkazishi shart.

Ta'kidlash kerakki, soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashdan bo'yin tovlash (O'zbekiston Respublikasi MJtKning 174-moddasi) huquqbuzarligini ko'rib chiqish jarayonida profilaktika inspektorlarining davlat soliq xizmati bilan bu boradagi hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tovlash - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh barava-rigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda,

mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishdan bo'yin tovlash, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki unda atayin noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, - bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, davlat soliq xizmati organlari profilaktika inspektorlari bilan hamkorligi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'muriy hududlarda soliq sohasiga oid huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va ushbu turdagi huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.